

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI

USMONOVA MAHLIYO SOBIRJON QIZI

NIKOHDAN AJRATISHDA VOYAGA YETMAGAN BOLALAR
HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISH MUAMMOLARI

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Dostor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2024-yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

USMONOVA MAHLIYO SOBIRJON QIZI

**NIKOHDAN AJRATISHDA VOYAGA YETMAGAN BOLALAR
HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISH MUAMMOLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Dostor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2024-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Usmonova Mahliyo Sobirjon qizi

Nikohdan ajratishda voyaga yetmagan bolalar huquq va manfaatlarini himoya qilish muammolari.....3

Usmonova Mahliyo Sobirjon qizi

Issues of protecting the rights and interests of minors during the divorce process.....23

Усмонова Махлиё Собиржон кизи

Проблемы защиты прав и интересов несовершеннолетних детей при расторжении брака.....44

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works
Список опубликованных работ.....48

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Yu542 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sudyalar oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.sudyalaroliymaktabi.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sindarov Komil Oydinovich
yuridik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Baratov Murodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlari doktori, professor

Topildiyev Baxromjon Raximjonovich
yuridik fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi huzuridagi PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 16-fevral kuni soat 15:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+998)555010189; faks: (+998)555010189, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Sudyalar oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+998)555010189; faks: (+998)555010189, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 31-yanvar kuni tarqatildi.

(2024-yil 31-yanvardagi 6-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.I.Nasriyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

D.R.Artikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

B.B.Samarxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda nikohdan ajralish holatlari so‘nggi o‘n yillikda nihoyatda ko‘payib, ayrim mamlakatlarda hatto 40-50 foiz dastlabki nikohlar bekor bo‘lmoqda. Jumladan, “Xitoy, Yaponiya, Hindiston kabi mamlakatlarning oila qonunchiligi nikohdan ajratishni birmuncha qiyinlashtirgan bo‘lsa ham, ushbu mamlakatlarda nikohdan ajralishlar kamida ikki barobarga ortgan. Bu borada Rossiya Federatsiyasi dunyoda uchinchi o‘rinda egalab turgan bo‘lsa, Osiyo qit‘asida Xitoy bu ko‘rsatkich bo‘yicha yetakchilik qilmoqda”¹. Nikohlar bekor bo‘lishining sabablari va oqibatlari, oilalar barbod bo‘lishining voyaga yetmagan bolalar jismoniy va ruhiy kamol topishiga ta’siri, bu jarayonda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni va rolini chuqur tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Jahonda nikohdan ajrashish natijasida bola huquqlarini himoya qilish, ularning ta’limi, tarbiyasi va moddiy farovonligi bilan bog‘liq muammolarga alohida e’tibor qaratilmoqda, nikohdan ajratishga oid qonunchilikni takomillashtirish, nikohdan ajratish jarayonida voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish, urushlar va boshqa favqulodda vaziyatlarda bolalarning ta’minoti va ta’limiga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda asosiy e’tiborni bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, davlat va jamiyat uchun munosib kelajak avlodni tarbiyalash, nikohdan ajraluvchi ota-onalar tomonidan huquqni suiiste’mol qilishni oldini olish, taraflar o‘rtasida bolalar manfaati yo‘lida hamkorlikni ta’minlashning huquqiy muammolarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda nikohdan ajralishlari soni nikoh qurish hajmidan ko‘ra ortib bormoqda. “O‘zbekistonda 2022-yilda nikohdan ajrashishlar soni 48,7 mingtani tashkil etib, so‘nggi 5 yilda sezilarli ko‘paygani kuzatildi. Jumladan, 2018-yilda 32,3 mingta, 2019-yilda 31,4 mingta, 2020-yilda 28,2 mingta, 2021-yilda 39,3 mingta ajrashish qayd etilgan. Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha: 34,3 foizi farzandsiz, 41,9 foizi bir farzandi bilan, 23,8 foizi 2 va undan ortiq farzandi bilan ajrashgan. Bu esa, o‘z navbatida, farzandlarning ayrim huquq va manfaatlarini ta’minlashda to‘sqinliklar va cheklovlarni yuzaga keltirmoqda”². Yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida nikohdan ajratish jarayonida bolalarning huquq va manfaatlarining to‘sqinliklarsiz amalga oshirilishi uchun amaldagi qonunchilik hujjatlarini yangi normalar bilan to‘ldirish va takomillashtirish bo‘yicha amaliy va nazariy takliflarni ishlab chiqish talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi (1998), O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (2008), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni, 2018-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash

¹ <https://wisevoter.com/country-rankings/divorce-rates-by-country/>

² <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/34140-demografik-holat-2022-yil-yanvar-sentabr-2>

to'g'risida"gi PQ-3808-son, 2019-yil 22-apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son qarorlari va boshqa qonunchlik hujjatlarining ijrosini muayyan darajada ta'minlashga ushbu tadqiqot ishi xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Nikohdan ajratish jarayonida voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga bag'ishlangan tadqiqot mavzusi shu kunga qadar O'zbekistonda mustaqil dissertatsiya obyekti bo'lib maxsus monografik tadqiqot sifatida tadqiq qilinmagan. Xususan, F.Otaxo'jayev, O.Oqyulov, Sh.Yuldasheva, X.Raxmonqulov, Z.N.Esanova, I.Zokirov, Sh.Shoraxmetov, U.Shoraxmetova, N.Raxmonqulova, M.Xaydarov, X.Abduraxmonova kabi olimlarning tadqiqotlarida nikohdan ajratish tartibi va shartlari, nikohdan ajratuvchi organlar, nikohni bekor qilish va uni haqiqiy emas deb topish hamda voyaga yetmaganlarning mulkiy-nomulkiy huquqlari, vasiylik va homiylik organlarining maqomi, xalqaro xususiy huquqda nikoh bilan bog'liq masalalar u yoki bu darajada yoritilgan. Masalan, F.Otaxo'jayev tomonidan O'zbekiston Respublikasida nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi, nikoh to'g'risidagi qonunlarining rivojlanishi va ularni takomillashtirish muammolari bo'yicha nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilganligini alohida ta'kidlash lozim. Huquqshunos olim nikohga kirishish va uni bekor qilishga oid huquqiy mexanizmlarning kelib chiqishi, amalda bo'lgan davri hamda ushbu huquqiy mexanizmlarning takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy muammolarini kompleks tadqiq etgan. Shuningdek, Z.N.Esanova bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizoli ishlarni sudda ko'rishning o'ziga xos protsessual xususiyatlarini o'rgangan. G.Inamdjanova ota-onalar va bolalarning huquqlarini himoya qilish muammolarini tadqiq etgan, fuqarolik va oila huquqida vasiylik va homiylikning mohiyati, ularni amalga oshirish usullari Sh.Yuldasheva¹ tomonidan o'rganilgan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda oila huquqi fani doirasida oilaviy nizolarini hal etish bilan bog'liq bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilganligi e'tiborga loyiq. Xususan, O.Oqyulov, D.Karaxodjayeva, K.Sindarov, I.Nasriyev, Sh.Yuldasheva, N.Ashurova, E.Egamberdiyev, M.Baratovlar o'zlarining izlanishlarida nikoh tuzish masalalari, nikohdan ajratish tartibi, nikohdan sud va FHDYo organlari tomonidan ajratish kabi masalalar, shuningdek voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlari, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi organlarning faoliyatiga oid masalalarning

¹ Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan.

ayrim qirralari yoritganlar.

Nikohdan ajratish, shuningdek voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlariga doir ishlarni ko'rish va hal etish bilan bog'liq masalalar doirasida jahonning turli davlatlari olimlari ham ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xususan, S.A.Muratova, L.M.Pchelinseva, L.V.Tixomirova, A.I.Zagorovskiylar oila qonunchiligi, nikohdan ajratish, nikohni haqiqiy emas deb topish kabi masalalarni, V.V.Izmaylov Rossiyada nikohdan ajratish masalalari va uning huquqiy tabiatini, Ye.Ye.Sedunov nikohni tugatishning asosi sifatida nikohni bekor qilish masalalarini, O.V.Kuznetsova oila huquqi prinsiplarini, Yu.F.Bespalov bolaning oilaviy huquqlarini amalga oshirish muammolarini, A.S.Sorokin Rossiya Federatsiyasining oila qonunchiligi va "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya bo'yicha oilada bolalarning huquqlarini, M.V.Anatolskoy, O.S.Ioffe, Ye.A.Posse, T.A.Fadeyeva, A.M.Nechayevalar oila huquqi muammolari va B.Gangalo aliment munosabatlarining ilmiy-amaliy jihatlarini o'rgangan bo'lsa, A.P.Sergeyeva, Yu.K.Tolstoy, P.V.Krashennikova, L.Yu.Mixeyevalar aliment to'lash to'g'risidagi bitimlarning xususiyatlarini, T.V.Belova voyaga yetmagan yoxud mehnatga layoqatsiz bolalar uchun to'lanadigan yoki undiriladigan aliment mablag'larining mulk huquqi obyekt sifatidagi xususiyatlarini, E.M.Vorojeykin, L.M.Pchelinseva, L.Yu.Mixeyeva, Sh.R.Yuldasheva, V.A.Ryasensev, O.S.Batovalar vasiylik va homiylik organining oilaviy huquqiy munosabatlardagi ishtirokini, oilada bolalarning tarbiyasi bilan bog'liq huquqlarni himoya qilishda vasiylik va homiylik organlarining faoliyati¹ bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar oila qonunchiligini takomillashtirishda nazariy poydevor vazifasini o'tashi, shubhasiz. Biroq aynan nikohdan ajrashgandan keyin voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Voyaga yetmaganlarning mulkiy va nomulkiy huquqlarini ta'minlash" (2021-2024) mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida olib borilgan.

Tadqiqotning maqsadi nikohdan ajratish jarayonida voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini amalga oshirish bilan bog'liq muammolarni aniqlash, huquqiy tartibga solishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiya va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nikohdan ajratish tushunchasi, uning huquqiy tabiati va nikohdan ajratishga olib keluvchi ijtimoiy-huquqiy omillarni tahlil qilish;

nikohdan ajratishga oid qonunchilikning rivojlanish bosqichlarini o'rganish;

chet el elementi ishtirokidagi nikohdan ajratishning moddiy va protsessual jihatlarini ochib berish;

nikohdan ajratishda voyaga yetmagan bolalarning mulkiy va nomulkiy

¹ Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan.

huquqlari turlari hamda ularni himoya qilishga oid jihatlarni yoritib berish;

nikohdan ajratishda voyaga yetmagan bolalarning ta'minotga oid huquq va manfaatlarini himoya qilishni tadqiq etish;

nikohdan ajratish oqibatida bolalarning yashash joyini belgilash asoslari va tartibini o'rganish;

nikohdan ajratish jarayonida voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda vasiylik va homiylik organlarining ishtirokini tahlil qilish;

nikohdan ajratishda voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha mediatsiya tartib-taomillarini qo'llashning xususiyatlarini o'rganish;

nikohdan ajratish oqibatida voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir xorijiy tajribani o'rganish orqali milliy qonunchiligimizni takomillashtirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti nikohdan ajratishda voyaga yetmagan bolalar huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning predmetini nikohdan ajratishda voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir qonunchilik normalari hamda ilmiy-nazariy jihatlari va ushbu sohadagi huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni olib borishda tarixiy va tizimlilik, analiz va sintez, qiyosiy-huquqiy va tahlil qilish, normativ-huquqiy va amaliy tahlil, umumlashtirish, mantiqiylik kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ota-ona qaramog'i mavjud bo'lmagan holatlar, ya'ni ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi yoki cheklanganligi, bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi yoxud muomalaga layoqati cheklanganligi, bolani tarbiyalashdan yoki uning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganligi bilan bir qatorda nikohdan ajralish sababli ham paydo bo'lishi asoslab berilgan;

bolaning otasi yoki onasi yoxud ularning o'rmini bosuvchi shaxslar tomonidan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslik, o'z huquqlarini suiiste'mol qilish va boshqa sabablarga ko'ra chet davlat hududida bolani nazoratsiz qoldirish qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi asoslab berilgan;

ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga to'laydigan aliment miqdorini belgilash, jumladan, har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori bolalarni boqish, tarbiyalash, ularning ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlash maqsadida qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo'lmasligi kerakligi asoslab berilgan;

aliment to'layotgan ota-onaning boshqa voyaga yetmagan bolalari bo'lib, undan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirilganda o'sha bolalar aliment olayotgan bolalarga nisbatan moddiy jihatdan kamroq ta'minlanib qoladigan bo'lsa, shuningdek aliment to'layotgan ota (ona) nogironligi bo'lgan shaxs bo'lib, moddiy jihatdan

qiynalib kelayotgan bo'lsa yoki aliment olayotgan shaxs mustaqil daromadga ega bo'lgan taqdirda aliment miqdori sud tomonidan kamaytirilishi mumkinligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

vasiylik va homiylik organlari vazifalaridan bolalarning manfaatlariga oid vazifalarni olib tashlash yoxud ushbu vazifalarni vasiylik va homiylik organlari ixtiyorida qoldirib, qolgan vazifalarni ularning vazifalaridan olib tashlash chuqur asoslantirib berilgan;

nikohdan ajratishda voyaga yetmagan bolalarning huquqlarin himoya qilishda mediatsiya institutini qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinib, bu toifa nizolarga nisbatan yarashtiruv-vositachilik tartib-taomillarini qo'llash, ushbu tartib-taomillar nizolarni mediator ishtirokida ko'rib chiqishdan iborat bo'lishi hamda bunday mediatorlar faoliyatini tegishli MFYlari qoshida tashkil etish zarurati asoslab berilgan;

nikohdan ajratishda voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga oid nizolarni sudga qadar hamda sudda ko'rishning har qanday bosqichida taraflarning ixtiyoriy roziligi asosida sudning hal qiluv qarori chiqarilishidan oldin "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ko'rib chiqish uchun mediatorga o'tkazish mumkinligi haqidagi taklif asoslab berilgan;

nikohdan ajratishda kelgusida voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlarini o'z vaqtida ta'minlanishi kafolati sifatida aliment majburiyatlariga ham kafillik munosabatlarini joriy etish hamda kafillik shartnomasini tuzishni nazarda tutuvchi normani qonunchilikka kiritish zarurligi asoslantirilgan;

nikohdan ajratishda kelgusida voyaga yetmagan bolalarning nomulkiy huquqlari (sog'ligini tiklash, sport musobaqalarida ishtirok etish, ota yoki onasi (yoxud boshqa yaqin qarindoshlari) bilan ko'rishish huquqi)ni o'z vaqtida ta'minlanishi uchun voyaga yetmaganlarning istisno holatlarda chetga chiqish huquqi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishni nazarda tutuvchi qonunchilik normalariga o'zgartirishlar kiritish zarurligi asoslantirilgan;

er va xotin qonuniy nikohga kirishgach, ular voyaga yetmagan farzandlarining nomulkiy huquqlaridan biri hisoblangan turar joyga ro'yxatga qo'yishga oid huquqlari buzilganligi amaliyotdan misollar keltirish bilan asoslantirib, qonunchilikka o'zgartirish kiritish taklifi berilgan;

bolalarning yashash joyiga nisbatan yosh senzi joriy etilishida qonun normalari o'rtasida tafovutlar mavjudligi asoslantirilib, bu bo'yicha qonunchilikka o'zgartirish kiritish taklifi berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonun normalarini qo'llash amaliyoti, so'rovnomalar, statistik ma'lumotlarning tahlili natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, shuningdek Oliy sud va fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona viloyati hududidagi sudlarning ish materiallaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sudga qadar va fuqarolik sud ishlarini yuritishda, vasiylik va homiylik

organlarining faoliyatini takomillashtirishda, MFY qoshidagi yarashtiruv komissiyalari tomonidan oilaviy nizolarni hal etishda, voyaga yetmaganlarning aliment olish bilan bog'liq huquqlarini qonuniy tartibga solish va hal etishda hamda qonun ijodkorligida inobatga olinishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oila huquqi va fuqarolik huquqi modullarini o'qitishda, oilani mustahkamlash, bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ota-ona qaramog'i mavjud bo'lmagan holatlar, ya'ni ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi yoki cheklanganligi, bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi yoxud muomalaga layoqati cheklanganligi, bolani tarbiyalashdan yoki uning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganligi bilan bir qatorda nikohdan ajralish sababli ham paydo bo'lishi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-829-son Qonuniga asosan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi o'n to'qqizinchi xatboshisiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2023-yil 9-avgustdagi 52-son dalolatnomasi). Ushbu normaning kiritilishi ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola tushunchasini yanada aniqlashtirish imkonini bergan;

bolaning otasi yoki onasi yoxud ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslik, o'z huquqlarini suiiste'mol qilish va boshqa sabablarga ko'ra chet davlat hududida bolani nazoratsiz qoldirish qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi haqidagi taklif "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi 2023-yil 15-martdagi O'RQ-823-son Qonuniga asosan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasini beshinchi qismiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2023-yil 9-avgustdagi 52-son dalolatnomasi). Ushbu normaning kiritilishi bolani nazoratsiz qoldirganlik uchun javobgarlik belgilanishiga xizmat qilgan;

ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga to'laydigan aliment miqdorini belgilash, jumladan, har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori bolalarni boqish, tarbiyalash, ularning ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlash maqsadida qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo'lmasligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim

qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-683-son Qonuni bilan Oila kodeksi 99-moddasining ikkinchi qismiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2023-yil 20-noyabrdagi 27/2-362-23-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga to'laydigan aliment miqdorini qonunchilikda aniqlashtirishga xizmat qilgan;

aliment to'layotgan ota-onaning boshqa voyaga yetmagan bolalari bo'lib, undan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirilganda o'sha bolalar aliment olayotgan bolalarga nisbatan moddiy jihatdan kamroq ta'minlanib qoladigan bo'lsa, shuningdek aliment to'layotgan ota (ona) nogironligi bo'lgan shaxs bo'lib, moddiy jihatdan qiynalib kelayotgan bo'lsa yoki aliment olayotgan shaxs mustaqil daromadga ega bo'lgan taqdirda, aliment miqdori sud tomonidan kamaytirilishi mumkinligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-maydagi "O'zbekiston Respublikasida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-770-son Qonuni bilan Oila kodeksi 105-moddasining birinchi qismiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2023-yil 20-noyabrdagi 27/2-362-23-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi aliment miqdorini kamaytirish yoki aliment to'lashdan ozod qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta xalqaro jurnalda va 6 ta respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 9 ta paragrafni o'zida jamlagan 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 124 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (dissertatsiya annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi hamda ularning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning "Nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlarning umumiy tavsifi" deb nomlangan birinchi bobida nikohdan ajratish tushunchasi, uning huquqiy tabiati va nikohdan ajratishga olib keluvchi ijtimoiy-huquqiy omillar,

nikohdan ajratishga oid qonunchilikning rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Muallif tomonidan nikohdan ajratish hamda nikohdan ajratishga olib keluvchi ijtimoiy-huquqiy omillar haqidagi bir qator olimlar (S.A.Muratova, L.M.Pchelinseva, B.A.Vedenskiy, V.Izmaylov, L.V.Tixomirova, Ye.Ye.Sedunov, O.V.Kuznetsova, A.I.Zagorovski, I.V.Koroleva, U.Shoraxmetova, Ye.V.Rozanova)ning yondashuvlari tahlil qilinib, "nikohdan ajratish" tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi berilgan: Nikohdan ajratish – qonuniy tartibda nikohdan o'tgan, qonun normalari bilan belgilangan o'zaro huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan er va xotinning sud yoki nikohdan ajratish vakolatiga ega bo'lgan boshqa organ tomonidan qonuniy tartibda o'tgan nikohning bekor qilinishi hamda nikohdan o'tgandan so'ng yuzaga kelgan o'zaro individual huquq va majburiyatlarining tugatilishidir.

Tadqiqot ishida nikohdan ajratishga olib keluvchi huquqiy omillarning kelib chiqish sabablari tahlil qilinib, kelgusida sog'lom ota-onadan sog'lom bola dunyoga kelishi, nikohdan ajralishlar va uning uzviy natijasi o'laroq huquqlari poymol bo'lishi kutilayotgan voyaga yetmagan bolalar sonini ko'payishining oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgustdagi 365-son qarori bilan tasdiqlangan "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"gi Nizomning 34-bandi hamda Oila kodeksining 44-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif qilingan.

Dissertant tomonidan nikohdan ajratishga oid qonunchilik normalari rivojlanish bosqichlariga bo'lingan holda tahlil qilindi. Shuningdek, har bir bosqichdagi qonunchilikning o'zgarib borish jarayonlari chuqur o'rganildi. Jumladan, birinchi bosqich – odamlarning ilk ibtidoiy jamoa sifatida shakllangan davri hamda "Avesto" manbasining amal qilgan davrini qamrab oladi; ikkinchi bosqich – arablar bosqinidan so'ng shariat qonunlarning amal qilishi va ushbu amal qilish davri tugashi, ya'ni Oktyabr inqilobiga qadar bo'lgan vaqtni qamrab oladi; uchinchi bosqich – oktabr inqilobidan so'ng, Sovet hokimiyati tomonidan nikoh institutiga diniy ta'sir yo'q qilingan hamda nikohga oid qonunchilikning yangi bosqichiga o'tgan davrni qamrab oladi; to'rtinchi bosqich – 1969-yilgi O'zbekiston SSRning Nikoh va oila kodeksida nikohdan ajratishning sud tartibi qayta tiklangan davrni qamrab oladi; beshinchi bosqich – 1998-yildan 2017-yilga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu davr O'zbekiston Respublikasi 1991-yil davlat o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin mustaqil O'zbekistonning 1998-yilgi Oila kodeksi qabul qilinishi bilan izohlanadi; oltinchi bosqich – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga asosan 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi hamda hozirgi davom etayotgan davr bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning **"Nikohdan ajratish jarayonida voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish kafolatlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida nikohdan ajratishda voyaga yetmagan bolalarning mulkiy va

nomulkiy huquqlari turlari va ularni himoya qilish, voyaga yetmagan bolalarning ta'minotga oid huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda nikohdan ajratish oqibatida bolalarning yashash joyini belgilash asoslari va tartibi yuzasidan nazariy-amaliy masalalar tahlil qilingan.

Dissertant voyaga yetmaganlarga ularning ota yoki onasi tomonidan to'lanadigan "aliment" hamda "ta'minot"ning bir-biridan farq qilishini asoslantiradi.

Nikohdan ajratishda voyaga yetmaganlarning aliment olish huquqini ta'minot turining bir ko'rinishi sifatida baholab, ta'minot turlarini kengaytirish zaruriyatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 17-bobi nomlanishini, ya'ni "Aliment to'lash to'g'risida kelishuv"ni "Ta'minot berish to'g'risida kelishuv" deb o'zgartirish, mazkur kodeks 18-bobi nomlanishini, ya'ni "Alimentlarni to'lash va undirish tartibi"ni "Ta'minot turlarini to'lash va undirish tartibi" deb o'zgartirishni, Oila kodeksining 134-moddasi 2-qismidagi "mol-mulk bilan yoki kelishuvda qayd etilgan boshqa usullarda" degan jummalarni chiqarib tashlash hamda ushbu moddani boshqa tegishli qism bilan to'ldirib bayon etishni ilmiy asoslantirib beradi.

Dissertant aliment majburiyatlari bilan bog'liq munosabatlarni fuqarolik-huquqiy munosabatlar tarkibiga kiritish haqidagi fikrlar bilan kelishmay, aliment majburiyatlari bilan bog'liq munosabatlar sof oilaviy huquqiy munosabatlar hisoblanishini asoslantirib beradi.

Er-xotin nikohdan ajrashgandan so'ng bolalarning alimentga oid huquqlarini kelgusida to'sqinliklarsiz amalga oshirilishini ta'minlash zaruratini inobatga olib, alimentga oid munosabatlarga ham "kafillik" institutini kiritish g'oyasini ilgari suradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-oktyabrdagi "Alimentlarni oldindan to'lash, shuningdek, aliment to'lash majburiyatini ta'minlash bo'yicha garov shartnomasini tuzish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 808-son qarori hamda ushbu qaror bilan tasdiqlangan Alimentlarni oldindan to'lash, shuningdek, aliment to'lash majburiyatini ta'minlash bo'yicha garov shartnomasini tuzish tartibi to'g'risidagi Nizomda ko'rsatilgan barcha "garov shartnomasi" degan so'zlarni "garov, kafillik shartnomasi" deb o'zgartirilishi lozimligi asoslantirilib, "kafillik" tushunchasiga quyidagicha ta'rif ishlab chiqildi: "Kafillik – aliment to'lash majburiyati mavjud tarafning kelgusida o'z majburiyatlarini obyektiv yoki subyektiv sabablarga ko'ra to'liq yoki qisman bajara olmasligi natijasida yuzaga kelgan qarzdorlikni o'zining ish haqi va boshqa daromadlari hisobidan bartaraf etuvchi shaxsning majburiyatlariga oid munosabatlardir".

Shuningdek, muallif bolalarning xususiy mulki tushunchasini o'rganib chiqib, nikohdan ajratish jarayonida bolalarning xususiy mulki masalasiga alohida to'xtalish lozimligini, aliment olishga oid huquqlarini ham xususiy mulk turlari qatoriga qo'shgan holda bolalarning xususiy mulkiga oid munosabatlarni mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksidagi bolalarning xususiy mulki bilan bog'liq norma hisoblangan 93-moddani 5-qism bilan, 44-moddasi 2-qismini tegishli xatboshi bilan to'ldirishni taklif etadi.

Dissertant nikohdan ajratishda voyaga yetmagan bolalarning nomulkiy huquqlarini muhokama qilar ekan, “bolani tarbiyaga olish” va “bolaning yashash joyini belgilash” bitta tushuncha, degan fikrlar bilan kelishmaydi. Uning fikricha, “bolani tarbiyaga olish”ni “bolaning yashash joyini belgilash”dan asosiy farqi shundaki, tarbiyalanish bu bolaning muyyan muhitda yoki hududda otadan yoki onadan yoxud har ikkalasi tomonidan bolaning bugungi kundagi ijtimoiy turmushi va kelajagi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan axloqiy, ma’naviy tomonlama tarbiyalanish, tarbiya olishi bilan bog‘liq munosabatlarni qamrab olsa, bolaning ota va ona bilan yashash huquqi esa, bolaning ulardan biri bilan (yoxud har ikkalasi) bir manzilda istiqomat qilishi, degan xulosaga keladi.

Er va xotin qonuniy nikohga kirishgach, ular voyaga yetmagan farzandlarining nomulkiy huquqlaridan biri hisoblangan turar joyga ro‘yxatga qo‘yishga oid huquqlari buzilganligi amaliyotda duch kelinayotgan muammolar bilan asoslantirib, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksini 17¹-modda bilan to‘ldirish taklifi ilgari suriladi.

Shu bilan birga, nikohdan ajratishda voyaga yetmagan bolalarning nomulkiy huquqlaridan biri bo‘lgan chet elga chiqish huquqi, istalgan vaqtda sog‘ligini tiklash uchun istalgan hududda davolanish huquqi, ota va onasi bilan ko‘rishish huquqi, kelajakdagi kamoloti uchun chet davlatlarga chiqish huquqining ta‘minlanishi qonuniy kafolatlanmagan, degan xulosaga kelinadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish tizimini yaratish hamda O‘zbekiston Respublikasi biometrik pasport tizimini modernizatsiya qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4079-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi to‘g‘risidagi Nizomdagi 22-band 4-xatboshining bevosita uzviy davomi sifatida mazkur Nizomni 22¹, 22², 22³-bandlar bilan to‘ldirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Dissertatsiyaning **“Nikohdan ajratish jarayonida voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarini himoya qilish shakllari va xorijiy tajriba”** deb nomlangan uchinchi bobida nikohdan ajratish jarayonida voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda vasiylik va homiylik organlarining ishtiroki, nikohdan ajratishda voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda mediatsiya tartib-taomillarini qo‘llash xususiyatlari, nikohdan ajratish oqibatida voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir xorijiy tajriba milliy va xorijiy qonunchilikni solishtirish asosida tahlil qilingan.

Dissertant ishda vasiylik va homiylik organi voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlariga doir nizolarni ko‘rishda sudda ishtirok etishdan tashqari tashqari barcha voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlariga daxldor nizolarini, xususan, nikohdan ajratish jarayonida bolaning kimning tarbiyasida qolishi, boshqa voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlariga daxldor masalalarni vasiylik va homiylik organining vakolatida qoldirib, qolgan ortiqcha funksiyalarni bu organ vakolat doirasidan chiqarib tashlash kerak, degan xulosani

ilgari suradi. Uning fikricha, nizolarni sudga qadar hal etish choralari keng yo'lga qo'yish, ayniqsa, bola huquq va manfaatlariga kelgusida putur yetishining oldini olish maqsadida vasiylik va homiylik organlari vakolatlarini va ular tomonidan chiqariladigan bola manfaatlariga oid hujjatlarning yuridik kuchini oshirish, mazkur organning huquqiy maqomi, uning vakolatlari, organga ariza bilan murojaat qilish tartibi, oilaviy nizolarni ushbu organda ko'rib chiqish tartibi, ushbu organning bayonnomasi, unga murojaat qilish muddati, uning qarori, ushbu organ qarori ustidan shikoyat qilish bilan bog'liq normalar oila qonunchiligida batafsil aks ettirilishi lozim.

Dissertant tomonidan vasiylik va homiylik organlarining faoliyati yuzasidan amaliyotchi huquqshunoslar o'rtasida bir nechta so'rovnomalar o'tkazildi hamda ushbu so'rovnomalar natijasiga ko'ra yakuniy xulosa tahlil qilinib, qonunchilikka takliflar ishlab chiqildi.

Dissertant tomonidan ushbu bobda vasiylik va homiylik organlariga ularning voyaga yetmagan bolalar huquqlarini himoya qilish faoliyati nuqtai nazaridan mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan: "Vasiylik va homiylik organi – nafaqat sudda xulosa bergan holda da'vogar sifatida ishtirok etish, balki sudga qadar va suddan keyingi bosqichda ham ayrim toifa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi, ularga daxldor har qanday masalada ishtirok etishi shart bo'lgan mustaqil organdir".

Nikohdan ajratishda voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlariga doir nizolarda yarashtiruv-vositachilik tartib-taomilini qo'llash, mazkur tartib-taomillar MFYlar qoshida tashkil etilishi taklif etilgan mediator ishtirokida ko'rib chiqishdan iborat bo'lishi, shuningdek bu toifa nizolarni ko'rib chiqishning istalgan bosqichida taraflarning ixtiyoriy roziligi asosida ular tomonidan o'zaro maqbul yechimga erishish uchun nizoni mediator ko'magida bartaraf etish tartib-taomili qo'llanilishi mumkinligi, bu toifa oilaviy nizolarni sudda ko'rib chiqishning istalgan bosqichida, sud hal qiluv qarorini qabul qilguniga qadar O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ko'rib chiqish uchun mediatorga o'tkazilishi mumkinligi haqidagi normani kiritish taklifi asoslantirib berilgan.

Bundan tashqari, dissertant tomonidan oilaviy nizolarga nisbatan mediatsiya tartib-taomilini joriy etilishi yuzasidan amaliyotchi huquqshunos va sudyalarning o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilgan va uning natijalariga ko'ra, ushbu institutni tashkil etish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi.

XULOSA

Nikohdan ajratishda voyaga yetmagan bolalar huquq va manfaatlarini himoya qilish muammolari mavzusini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Nikohdan ajratish tushunchasiga ilmiy doktrinal ta'rif ishlab chiqildi: "Nikohdan ajratish – qonuniy tartibda nikohdan o'tgan, qonun normalari bilan belgilangan o'zaro huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan er va xotinning sud yoki

nikohdan ajratish vakolatiga ega bo'lgan boshqa organ tomonidan qonuniy tartibda o'tgan nikohining bekor qilinishi va nikohdan o'tgandan so'ng yuzaga kelgan o'zaro individual huquq va majburiyatlarining tugatilishi hisoblanadi".

2. Bolalar aholining eng kam himoyalangan qatlami bo'lib, ularning huquqlarini ta'minlash, birinchi navbatda, har bir davlatning ichki masalasidir. Muallif nikohdan ajralishda har tomonlama va keng qamrovli prinsip sifatida "bola manfaatlari ustuvorligi" prinsipini ilgari suradi. Mazkur prinsip hattoki ota-onaning hukmronligiga ham qarama-qarshi turadi. Bola o'z yoshi va biologik xususiyatlari tufayli mustaqil qaror qabul qila olmaganligi sababli ularning ota-onasi garchi ular nikohdan ajrashayotan bo'lsalar-da, bolaning nomidan vakil sifatida oqilona qaror qabul qilishlari shart. Sud bolaning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida mazkur fundamental prinsipni ro'yobga chiqarishi zarur.

3. Nikohdan ajratishga oid qonunchilik normalari rivojlanish bosqichlariga bo'lindi. Bunda har bir bosqichdagi qonunchilikning o'zgarib borish jarayonlari chuqur o'rganildi. Jumladan:

birinchi bosqich – odamlarning ilk ibtidoiy jamoa sifatida shakllangan hamda "Avesto" manbasining amal qilgan davrini qamrab oladi;

ikkinchi bosqich – shariat qonunlarning amal qilishi va ushbu amal qilish davri tugashi, ya'ni Oktabr inqilobiga qadar bo'lgan vaqtni qamrab oladi;

uchinchi bosqich – oktyabr inqilobidan so'ng, Sovet hokimiyati nikoh institutiga diniy ta'sir yo'q qilingan hamda nikohga oid qonunchilikning yangi bosqichiga o'tgan davrni qamrab oladi;

to'rtinchi bosqich – 1969-yilgi O'zbekiston SSRning Nikoh va oila kodeksi asosida nikohdan ajratishning sud tartibini qayta tiklangan davrni qamrab oladi;

beshinchi bosqich – 1998-yildan 2017-yilga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu davr O'zbekiston Respublikasi 1991-yil davlat o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin haqiqiy mustaqil O'zbekistonning 1998-yilda o'z Oila kodeksi qabul qilinishi bilan izohlandi;

oltinchi bosqich – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoniga asosan 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi hamda hozirgi davom etayotgan davr bilan izohlandi.

4. Voyaga yetmaganlarga ularning ota yoki onasi tomonidan to'lanadigan "aliment" hamda "ta'minot"ning bir-biridan farq qilishi asoslantirildi. Aliment torroq tushuncha bo'lib, ta'minotning bir ko'rinishi hisoblanadi, ta'minot sifatida boshqa pullik xarakterga ega bo'lmagan, natura shaklida turli xil ehtiyojni ta'minlovchi predmetlar, buyumlar undirilishi ham mumkin. Jumladan, oziq-ovqat bilan ta'minlanish orqali ta'minot olish, kiyim-kechak, ust-bosh olish orqali ta'minot olinishi mumkin. Nikohdan ajratishda voyaga yetmaganlarning aliment olish huquqini ta'minot turining bir ko'rinishi sifatida baholab, ta'minot turlarini kengaytirish zarurati mavjud, degan xulosaga kelindi.

5. Nikohdan ajratishda voyaga yetmagan bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda fuqarolik-huquqiy majburiyatlarni ta'minlash usullari

qo‘llanilishi zarur. Bunda, xususan, kafillik shartnomasi imkoniyatlaridan unumli foydalanish imkoniyati mavjud. Voyaga yetmagan bolalarning er-xotin nikohdan ajrashgandan so‘ng alimentga oid huquqlarini kelgusida to‘sqinliklarsiz amalga oshirilishini ta‘minlash zaruriyatini inobatga olib, alimentga oid munosabatlarga ham “kafillik” tushunchasini kiritish maqsadga muvofiq. Kafillik tushunchasiga quyidagi mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan:

“*Kafillik* – aliment to‘lash majburiyati mavjud tarafning kelgusida o‘z majburiyatlarini obyektiv yoki subyektiv sabablarga ko‘ra to‘liq yoki qisman bajara olmasligi natijasida yuzaga kelgan qarzdorlikni o‘zining ish haqi va boshqa daromadlari hisobidan bartaraf etuvchi shaxsning majburiyatlariga oid munosabatlardir”.

6. “Bolani tarbiyaga olish” va “bolaning yashash joyini belgilash” bitta tushuncha degan fikrlar noto‘g‘ri hisoblanadi. “Bolani tarbiyaga olish”ni “bolaning yashash joyini belgilash”dan asosiy farqi shundaki, tarbiyalanish bu bolaning muayyan muhitda yoki hududda otadan yoki onadan yoxud har ikkalasi tomonidan bolaning bugungi kundagi ijtimoiy turmushi va kelajagi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan axloqiy, ma‘naviy tomonlama tarbiyalanish, tarbiya olishi bilan bog‘liq munosabatlarni qamrab olsa, bolaning ota va ona bilan yashash huquqi esa, bolaning ulardan biri bilan (yoxud har ikkalasi) bir manzilda istiqomat qilishini anglatadi.

